

«Yangi avlod – 2009» bolalar ijodiyoti festivalining Respublika bosqichi bo'lib o'tdi.
Bu haqda gazetaning keyingi sonlarida o'qiysiz

TONG YULDUZI

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

2009-yil
16-noyabr
N:46
(66743)

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqib boshlagan O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi ISSN – 2010-6092

KITOBLAR

BAYRAMIGA

MARHAMAT!!!



Qadrli bolajonlar! Sizlar bayramlarni yaxshi ko'rishingiz tabiiy. Bunday tadbirlarni tashkil etish kattalar uchun ham maroqli.

Yurtimiz bo'ylab yana bir katta bayram shodiyonalari boshlandi. Respublika o'quvchilar saroyida kitoblarni ko'rgazmasi ochildi.

Prezidentimizning 2006-yil 31-maydagi «Umumta'lim maktablari o'quvchilarini darsliklar bilan ta'minlash tizimini takomillashtirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 362-sonli Qaroriga binoan Davlat ta'lim standartlari, umumiy o'rta ta'lim o'quv rejaları va dasturlari takomillashtirilib, ularga muvofiq zamon talablariga mos keladigan yangi darsliklar va o'quv qo'llanmalari nashr etilmoqda.

Respublika o'quvchilar saroyida «Umumta'lim maktablari uchun darslik va o'quv qo'llanmalari» bo'yicha ixtisoslashtirilgan maxsus ko'rgazma ochildi. Mazkur ko'rgazmada O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi tizimidagi «O'zbekiston», «O'qituvchi», G'afur G'ulom, Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uylari hamda «Sharq» NMAK, «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi», «Ma'naviyat», «Adolat», «Turon-iqbol», «Yangi asr avlodi», «Yangiyo'l poligraf servis» kabi nashriyotlar darslik va boshqa adabiyotlari bilan ishtirok etdilar.

Mazkur kitob bayramida ko'plab yozuvchi va shoirlar ham ishtirok etishdi.

2009-2010-o'quv yili rejasiga ko'ra umumta'lim maktablari o'quvchilari uchun 315 nomda (shundan 265 nomdagisi qayta nashr, 50 nomdagisi yangi nashr) jami 22658862 nusxa darsliklar hamda metodik qo'llanmalar nashriyotlarda chop etildi.

Bu yilgi rejalar ham ulkan. Jami 471 nomdagi 38,7 million nusxada darsliklarni chop etish ko'zda tutilgan.

Aziz o'quvchilar, ko'rgazmada ishtirok eta olmadim, deya xafa bo'lmang, mazkur ko'rgazma respublikamizning barcha viloyatlarida bo'lib o'tadi.



- Qadrli tengdoshlar!

«Tong yulduzi»ga obuna bo'lishga shoshiling, - deydi

Mirobod tumanidagi
328-umumta'lim maktabining 7-«B» sinf o'quvchisi
Xadichabonu RAZZOQOVA

Nashr ko'rsatkichi - 198

«ALPOMISH»NI O'QIYSIZ



Yaqinda tahririyatimizga andijonlik tengdoshingizdan kelgan bir maktub e'tiboringizni tordim:

– Bobomning mingdan ziyod kitoblari bo'lgan kattagina kutubxonasida xalqimizning sevimli dostoni «Alpomish» ham bor.

Yaqinda ana shu dostonni o'qish niyatida qo'limga oldim. Kirill alifbosidagi dostonni biroz qiynalib o'qib chiqdim-u, lekin mazmuniga unchalik tushunolmadim...

Shu maktub turtki bo'lib, asarning siz o'quvchilarga mo'ljallangan yangi talqinini lotin alifbosida nashrga tayyorlashga jazm etdik.

Nima uchun bu katta ishga qo'l urdik?

Ma'lumki, har bir xalq qadim yodgorliklari bilan o'zligini namoyon etadi. Xalqning dunyo ma'naviyati xazinasiga qo'shgan hissasi ham shu yodgorliklar bilan o'lchanadi. Bizda esa bunday asoriatlilar, yodgorliklar juda ko'p. «Alpomish» dostoni xalqimiz boy merosining

shoh asarlaridan biri hisoblanadi.

Bu durdona asarning o'ttizdan ortiq nusxalari yozib olinib, kitob holida chop etilgan.

Fozil Yo'ldosh o'g'li kuylagan «Alpomish» dostoni mumtoz nusxalaridan biri sifatida tan olingan.

Filologiya fanlari nomzodi Toshtemir Turdi-

yev nashrga tayyorlagan nusxasi ham o'ziga xosligi bilan ajralib turadi.

Xullas, yosh do'stim, sevimli gazetangiz sahifalarini kuzatib boring: yaqin kunlarda «Alpomish» dostonini Sizlarga sovg'a qilamiz. Bu ishimiz barchangizga, ustozlaringiz, ota-onangiz, bobo va buvilaringizga ham ma'qul bo'ladi, degan umiddamiz.

MUNISIM ONAM

(Qatra)

Ona... Sizing shirin so'zingiz menga ilhom bag'ishlaydi. Ko'zlaringizdagi quvonchning cheki yo'q. Yuzingizdagi mehr esa musaffo osmonni eslatadi. Siz bergan mehrni dunyodagi hech bir kimsa bera olmaydi.

Ona... Ollohim sizga quyoshdan mehr, yerdan saxovat, yulduzlardan chiroy olib taqdim etgan. Siz chinakam ayol, ona siyratidagi farishtasiz. Istardimki, chehrangizda hech qachon g'amginlik aks etmasin!

Siz yig'lamang, ko'zlaringizda hamisha quvonch balqsin!

Nilufarbegim HAYDAROVA



EHTIYOTKOR BO'LING

Ma'lumki, qish faslida havo haroratining sovushi bilan yurtimizda tabiiy gaz bosimi ham keskin pasayadi. Bunday paytda fuqarolarimiz qo'shimcha isitish moslamalaridan, gaz ballonlari, o'tin va ko'mir yordamida qizitiladigan o'choqlardan foydalanadilar.

To'g'ri, bunday choralar mushkul vaziyatda asqotadi. Ammo moslamalardan foydalanganda xavfsizlik qoidalariga qat'iy amal qilish, ehtiyot choralarini ko'rish barchaning yodidamikan?!

Masalan, gaz balonlari gaz plitasidan 0,5 metr, boshqa isitish qurilmalaridan bir metr uzoqlikda joylashishi talab etiladi. Yonuvchi, tez alanganuvchi buyumlarni qurilmadan olisda saqlash lozim. Alanga hosil qilishda ko'pchilik kerosin, solyarka kabi tez yonuvchi suyuqliklarni ishlatadilar.

Bunday holatlarda ehtiyotsizlik oqibatida kiyimga, tanaga yoki buyum-jihozlarga sachragan yonilg'ining bir tomchisi ham katta fojialarni keltirib chiqarishi mumkin. Shunday ekan, yurtdoshlarimizga doimo bir o'tinch va talabni takror-takror aytaveramiz: hushyor va ehtiyotkor bo'ling!

Zafar AKBAROV,

12-XYOXO inspektori, katta leytenant

Dilmurod O'TAGANOV
g'ayratli, shijoatli
jurnalist.

U gazetamizning Surxondaryo viloyati bo'yicha jamoatchi muxbiri sifatida ish boshladi. Bugun uning ustozlar haqidagi ikki xabarini e'tiboringizga havola qilyapmiz. Omad yor bo'lsin sizga, Dilmurod!

BIZNING NAFISA OPA

Nafisa Murodova ko'p yillardan buyon Oltinsoy tumanidagi 58-umumta'lim maktabida ona tili va adabiyot fanidan yosh avlodga bilim berib kelmoqdalar. Ustoz boshchilik qilayotgan maktab qoshidagi «Yosh shoirlar» to'garagi a'zolari ijodidan namunalar hozirda tuman gazetalarida chop etilyapti. Shogirdlari Gulira'no Bobonazarova, Qizlarbas Saidova, Mahzuna Tog'ayeva, Husniya Ergashevalar ona Vatan, do'stlik mavzusidagi she'rlari bilan ustozlari mehnatini yuzaga chiqarmoqdalar. 33 yillik mehnat faoliyatlari davomida ustoz yuzlab iste'dodli yoshlarga saboq berib kelmoqdalar.

HAVAS BILAN QARASHAR

Rahmatjon akani mahallada tanimaydigan insonning o'zi yo'q. Ko'p yillar davomida Sho'rchi tumanidagi 17-umumta'lim maktabida faoliyat yuritayotgan Rahmat Rajabov bilim dargohidagi har bir o'quvchi va ustozlarga qadrdon bo'lib ketganlar. Nafaqat maktabda, balki oilada ham Gulbahor, Shalola, Gulnoza hamda Umidjon ismli komil farzandlarni tarbiyalayaptilar. Ot o'rnini toy bosar deganlaridek, hozirda ustozning uch nafar qizlari ota kasbini egallashgan. Bu oilaga tumandagi yosh-u qari havas qiladi.

Dilmurod O'TAGANOV,
«Tong yulduzi»ning jamoatchi muxbiri

Izlanuvchan, bilimdon qiz Sitora litseyimiz faxri. U adabiyotga alohida mehr qo'ygan. Ijod namunalari ko'plab respublika gazeta va jurnallarida e'lon qilingan.

Yaqinda «Vatanimning yuragi» nomli she'riy kitobi nashrdan chiqdi.


Ushbu to'plamda Sitoraning ilk mashqlari, Vatan, do'stlik, bunyodkorlik, mehr-oqibat mavzuidagi she'rlari o'rin olgan.

Sitoraga o'zi yozganidek, beg'ubor, ajib tuyg'ular tinchlik bermayotganidan, she'riyat olamiga dadil qadamlar bilan kirib borayotganidan xursandman.

Feruza MIRZAAHMEDOVA,

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti qoshidagi 1-sonli akademik litseyning oliy toifali ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

VATAN BU...



Vatan bu tug'ilib o'sgan tuprog'im,
Kindik qonim oqqan muqaddas zamin.
Sog'inchi chorlagan ko'z-u qarog'im,
Bunga olislarda bo'lganman amin.
Vatan bu ilk bora qadamim shoshgan,
Qadrdon maktabim – orzuli qanot.
Mehrining taftidan hayratim oshgan,
Birinchi ustozim – harf tanitgan zot.
Vatan bu yuragim to'ridagi nur,
Bir ajib tug'yondir otashi so'nmas.
Shundayin beg'ubor muhabbatimdir,
Izhorin so'z birla oxirlab bo'lmas.
Allalar madhidan ortar hayajon,
Vatan bu onamdir, jonim, jahonim.
Barini bir so'zda aylasam bayon,
Yaralgay yagona O'zbekistonim!

Sitora RAHMATOVA

YANGI OY CHIQQAN ALLANING XOSIYATI KECHA

Tunda osmon husniga,
Mahliyo boqar ko'zlar.
Yangi chiqqan hilolga,
Parvonadir yulduzlar.

Ko'k go'yo yulduzlarni,
Tanga qilib sochadi.
Oyga boqib buvijonim,
Duoga qo'l ochadi.

«Oydin bo'lsa yo'lingiz,
Iqbolingiz ham kular», –
Deya quchib buvimlar,
Peshonamdan o'pdilar.



Asta beshik tebratar,
Dilida ezgu niyat.
Onalar allasida,
Bordir bir olam hikmat.

Alla yomonliklarning,
Yo'lini to'sadi.
Alla tinglagan farzand,
Komil bo'lib o'sadi.

Baxtimizga onalar,
Sog'-u salomat yursin.
Tun bag'rida allasi,
Mudom jaranglab tursin!

Oydinoy ABDUSHARIPOVA

TA'TILDAGI KO'RIK-TANLOV

Ta'til kunlarida Yunusobod tumanidagi 274-umumta'lim maktabida «Zulfiyaxonim qizlari» tanlovi bo'lib o'tdi. Hay'at a'zolari 15 nafar ijodkor qizlarning tasviriy san'at, dizayn, madaniyat, bilim, adabiyot yo'nalishidagi ishlari bilan tanishib chiqib, dizayn yo'nalishi bo'yicha 7-«A» sinf o'quvchisi Zulfizar Muhammadaliyevani birinchi, Visola Nurullayevani ikkinchi o'ringa loyiq topishdi. Tasviriy san'at bo'yicha esa 6-

«V» sinf o'quvchisi Dono Toirova birinchi, 7-«V» sinf o'quvchisi Kamola Akromova ikkinchi o'rinni egalladi.

– Qizlarimiz munchoqdan tikkan anvoysi gullarga qarab, «hid»ini sezgandek bo'ldim, – deydi hay'at raisi Shohida Abdullayeva. – Yaratgan qo'g'irchoqlaridagi milliylik, ijodkorlik bizni quvontirdi. Tabiat, Vatan mavzusidagi rasmlar ham qizlarimizda ijodkorlik rivojlanayotganidan



dalolatdir.

G'olib o'quvchilar «Zulfiyaxonim qizlari» ko'rik-tanlovining tuman bosqichida

qatnashish huquqini qo'lga kiritdilar.

Mahmuda ZOIRXON
qizi

BUVISINING QIZI

Buvasi va buvisi bilan birga yashaydigan do'stlarimga havasim keladi. Negaki, buvijonimning uylari bizdan judayam uzoqda-da. Ularni ko'rgim kelsa, qo'shni Respublika Qozog'istonga borishimga to'g'ri keladi. Buvijonimnikiga mehmonga borsak, ular bizni Chimkent shahrining go'zal joylariga sayohatga olib boradilar. Meni ko'rgan qarindoshlar buvijonimga: «Nuroy opa, nabirangiz Muxlisa judayam sizga o'xshabdi-ya, buvisining qizi bo'libdi», deyishadi. Bu gaplardan quvonib ketaman. Kechalari buvim bizga qiziqarli hikoyalar, ertaklar aytib beradilar. Gaplari orasida bizdan qanday gazeta, jurnal yoki badiiy adabiyotlar o'qiyotganimiz haqida so'raydilar. Men «Tong yulduzi» gazetasi haqida buvijonimga so'zlab berdim. Ular: «Keyingi safar kelganingda barcha o'qigan gazeta hamda kitoblaringni olib kel», dedilar. Kelgusi safar maqolam chop etilgan «Tong yulduzi»ni Qozog'istonga olib borib, uni buvijonimga va qozog'istonlik do'stlarimga ko'rsataman.

Muxlisa DEHQONBOYEVA,
poytaxtimizdagi 258-umumta'lim maktabining
5-«A» sinf o'quvchisi




XORIJDAGI TENGDOSHIM

Aziz o'quvchilar! Gazetamizda berib borilayotgan chet ellik tengdoshlaringiz haqidagi maqolalarning birida amerikalik o'quvchilar hayoti bilan tanishgan edingiz. Sinchiklab o'qigan bo'lsangiz, amerikalik tengdoshlaringiz boshlang'ich sinflardan o'rganishlarini bilib olgandirsiz?


Bugun esa e'tiboringizga Angliya hamda Germaniyadagi tengdoshlaringiz hayoti haqida ma'lumot beramiz. Angliyalik o'quvchilar boshlang'ich sinfdan amerikalik bolalar kabi tarixni emas, balki kompyuterni mukammal o'rganishar ekan.

1-SINF DAN KOMPYUTER SABOQLARI



Ingliz mutaxassislarining bayon qilishicha, Angliya maktablarining boshlang'ich sinf o'quvchilari 1-sinf dan kompyuterni mukammal bilishlari shart ekan. Bundan asosiy maqsad, yosh avlodga boshlang'ich sinfdan o'rganishdir. Hozirda angliyalik o'quvchilarga boshlang'ich sinfdan o'qitiladigan 14 ta fan ichidan 6 ta asosiy fanni mukammal o'rganish rejalashtirilmoqda.

SAMOLYOTDA O'TADIGAN DARS



Britaniya maktablarida pedagoglar ta'lim sohasiga yangicha o'qitish uslubini tadqiq etmoqdalar. Bu usul boshlang'ich sinf o'quvchilaridan bitiruvchi sinf o'quvchilarigacha mo'ljallangan. Bunda 1-sinf o'quvchilari birinchi o'qish kunini maktabda emas, balki samolyotda boshlaydilar. Samolyotda olib borilgan dars juda qiziqarli bo'lib, o'qituvchilar bu usul bilan o'quvchilarning tez va oson o'zlashtirishlariga erishmoqdalar.


SHUMTAKALAR AVTOBUSI



Angliyada shumtaka va to'polonchi o'quvchilarni tarbiyalashning yangi usuli o'ylab topildi. Intizomsiz o'quvchilar maktabga

pushti rangdagi maxsus avtobuslarda olib kelinadi. Ushbu avtobusga bir marta chiqqan to'polonchi o'quvchi keyingi safar unga chiqishni xohlamas ekan. Chunki avtobuslarda konditsionerlar yo'q bo'lib, o'quvchilar issiqdan behol bo'ladilar. Hozirda bu usulni ota-onalar hamda o'qituvchilar bir ovozdan ma'qullamoqdalar.

ANGLIYADAGI TEST SINOVLARI



Kembrij universiteti tadqiqotchilarining hisobotlariga ko'ra, Angliya o'quvchilari boshqa mamlakat yoshlariga nisbatan juda qattiqqo'llik bilan test sinovlaridan o'tadilar. Bu holat ko'proq boshlang'ich sinf o'quvchilarida kuzatiladi. Hukumat ota-onalarning taklifiga binon, boshlang'ich sinflar uchun tayyorlangan test savollarining murakkabligi tufayli qaytadan test tuzish haqida Ta'lim vazirligiga murojaat qildi. Ota-onalar fikriga ko'ra, bunday qiyin testlarni yechish bolaning aqliga hamda asabiga salbiy ta'sir qilayotgan ekan.

Nigora HAKIMOVA,
Toshkent bank kolleji muallimasi

TEST

1. Oybekning dastlabki to'plami qaysi nom bilan, qachon nashr etilgan?

- A) «Navoiy» (1944);
B) «Qutlug'qon» (1940);
D) «Quyosh qoraymas» (1958);
E) «Tuyg'ular» (1926).

2. «Tor, qiyshiq ko'chaning oqshomini Tursunqul akaning churuk darvozasi tepasiga o'tqizilgan bir fanorning titrak nurlarigina yoritar edi...»

Qaysi asar shunday boshlanadi?

- A) «Gulnor opa»;
B) «Bolalik»;
D) «Fonarchi ota»;
E) «Na'matak».

3. «Tek tur, huvari. Hali pishgani yo'q». Yuqoridagi gap qaysi asar qahramoniga tegishli?

- A) «Fonarchi ota»da Tursunqul;
B) «Bolaning ko'ngli podsho»da bobo;
D) «Uloqda»da bola;
E) «Umr haqida ertak»da chol.

4. «Vaqt», «Sog'inish», «Onalar» she'rlari muallifi kim?

- A) G'.G'ulom;
B) S.Ahmad;
D) T.To'la;
E) Oybek.

5. «Mening o'g'rigina bolam», «Bemor» hikoyalari muallifi kim?

- A) S.Ahmad;
B) Oybek;
D) Zulfiya;
E) G'.G'ulom.

6. Ijodi chaqqoqqa o'xshatilgan shoir kim?

- A) A.Syun;
B) T.To'la;
D) U.Nosir;
E) U.Azim.

7. «Shitir-shitir o'ynar shabada, Barglar musiqasi bir shirin... Havo go'yo tiniq, sof boda, Ko'ngil sezar hayotning sirin».

Ushbu parcha U.Nosirning qaysi she'ridan olingan?

- A) «Yurganmisiz birga oy bilan»;
B) «Bolaligimga»;
D) «Yo'lchi»;
E) «Yoshlik».

8. Ohang jihatdan bir tartibga solingan, his-tuyg'u ifodasi sifatida yaratilgan hissiy nutq nima deyiladi?

- A) hikoya;
B) g'azal;
D) maqol;
E) she'r.

9. Cho'lpon, H.Olimjon, G'.G'ulom, M.Shayxzoda, U.Nosir, Mirtemir kabi shoirlar she'rning qaysi shaklida ijod etishgan?

- A) aruz;
B) barmoq;
D) oq she'r;
E) erkin.

10. Vazn saqlangan, biroq qofiyalari bo'lmaydigan she'r qanday she'r deyiladi?

- A) nasriy;
B) erkin;
D) oq she'r;
E) to'g'ri javob yo'q.

Trening menga o'z fikrlarimni erkin bayon etishni, o'z galar fikrini tinglashni o'rgatdi

Aziz o'quvchilar, xabaringiz bor, poytaxtimizning muhtasham «Grand Orzu» mehmonxonasida Journalistlarni qayta tayyorlash Xalqaro markazi hamda YUNISEFning O'zbekistondagi vakolatxonasi hamkorligida «Bolalarning o'z fikrlarini bolalar ommaviy axborot vositalari orqali ifodalash huquqini ta'minlash» mavzusida 5 kunlik seminar-trening bo'lib o'tdi.

Va'da qilganimizdek, bugun uning ishtirokchilari o'z taassurotlari bilan o'rtoqlashadilar.

So'z yosh muxbirlarga!

JURNALIST... BO'LISHI KERAK



Ko'plab tengdoshlarim qatori mazkur seminar-treningda ishtirok etish baxtiga muyassar bo'lganimdan behad mamnunman. Mashg'ulotlar davomida jurnalist qanday bo'lishi kerak, degan savolga javob topdim. Jurnalist ma'lumotlar yig'ibgina qolmay, insonlar bilan suhbatlashish odobi, madaniyatini, qoidalarini bilishi, qay bir soha vakili bilan suhbatlashmasin, ana shu soha haqida ma'lum darajada bilim va ma'lumotlarga ega bo'lmo'g'i lozim. U chiroyli so'zlashish bilan birga, qiziqarli suhbatdosh, ko'p qirrali ijodkor bo'lishi ham kerak.

Endi shu o'rganganlarim asosida bilim va ko'nikmalarimni boyitib boraman.

Sanobar LUTFULLAYEVA

UNUTILMAS

KUN

Konservato-riyaning oppoq, ulug'vor binosi hayratimizni oshirdi: me'morchiligimizning noyob namunasi bo'lmish bu bebaho inshoot mustaqillik obidasi, faxrimiz, qudrati-miz timsolidir. Katta, moviy koshonada bir guruh bo'lajak sozandalar bastakor Rustam Abdullayevning yangi kuyini orkestrjo'rligida ijro etishardi. Talabalarining diqqati notalarga qaratilgan, barmoqlari esa musiqa sozlari uzra oqqush qanotlaridek yengil harakatlanardi. Shu tobda ularga juda havasim keldi. Tanaffus paytidan foydalanib, Nigina Alimaxsumova ismli

tengdoshim bilan yaqinroq tanishib oldim.



U san'atkorlar oilasida tug'ilgan ekan. Onasi Uspenskiy nomidagi Toshkent musiqa litseyida faoliyat yuritir, opasi esa London simfonik orkestrida skripka chalar ekan. Yosh bo'lishiga qaramay Nigina Moskva, Samarqand shaharlarida o'tkazilgan musiqa festivallarida ishtirok etibdi. Shu kunlarda yanada jiddiyroq tanlovlarda ishtirok etishga hozirlik ko'rayotgan Niginaxon-ga omadlar tilab, xayrlashdim.

Kelajakda jurnalist bo'lish niyatidaman. Birinchi intervyu olgan kunimni esa sira unutmayman.

Saodat HAYITOVA,
Sergeli tumanidagi

322-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi

ENDI O'ZIMGA ISHONAMAN

Yoshim 12 da. Hayotimdagi ilk seminar-treningdan bir olam taassurot oldim. Maqola yozishning qonun-qoidalarini o'rgandim. Toshkent Davlat konservatoriyasining iqtidorli talabalaridan biri Nargiza Ahmadjonovadan intervyu olib, u haqida quyidagi ma'lumotlarni bilib oldim:

Nargiza Ahmadjonova istiqloq tengdoshi. Olti yoshidan goboy musiqa asbobini chala boshlagan Nargiza opadagi musiqaga bo'lgan ishtiyoqni dadasi uyg'otgan ekan. Chunki u kishi ham musiqachi ekanlar.

To'g'risi, bunday musiqa asbobi borligini bilmas ekanman. Shuning uchun Nargiza opamdan bu cholg'u asbobi haqida ma'lumotlar berishlarini so'radim.

Goboy XVII asrning oxirida Fransiyada ishlab chiqarilgan cholg'u asbobi bo'lib, Afrikada o'sadigan qora yog'och va tuk daraxtidan yasaladi. Tepa, o'rta va karnaycha qismlariga bo'linadigan asbobda temir bilan qoplangan 24-25 ta teshikchalari bo'lgan cholg'u asbobidan juda yoqimli kuy taralar ekan...

Tabiatan juda tortinchoq qizman. Ko'pchilik orasida bilganlarimni bayon etolmay, afsuslanib qolgan damlarim ham bo'lgan. Trening menga o'z fikrlarimni erkin bayon etishni, o'z galar fikrini tinglashni, shuningdek, o'zim va tengdoshlarim fikrlarini himoya qilishni o'rgatdi. Mamlakat va jamiyat hayotida to'laqonli ishtirok etishim lozimligini ham anglab yetdim. Zero, bularning bari «Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya»da yozib qo'yilgan ekan.

Bir so'z bilan aytganda, trening menda o'zimga bo'lgan ishonchni shakllantirdi.

Aziza JALILOVA,
poytaxtdagi 249-umumta'lim maktabining 7-«V» sinf o'quvchisi




TA'TIL MAROQLI O'TDI

Kuzgi ta'til kunlarimni poytaxtimiz Toshkentda o'tkazdim. Respublikamizning ko'plab viloyatlaridan kelgan tengdoshlarim qatorida bolalarning haq-huquqlariga bag'ishlangan seminar-treningda ishtirok etdim. 5 kunlik seminar-treningning uchinchi kuni olgan nazariy bilimlarimni amaliyotda mustahkamlash maqsadida to'rt guruhga bo'linib, poytaxtimizning diqqatga sazovor joylari bo'yab sayohatga yo'l oldik.

Guruhimiz bilan Toshkent Davlat konservatoriyasiga bordik. Tanaffusda bilim dargohining 2-bosqich talabasi Xosiyat Husanovani suhbatga chorladim.

Opaning olti yoshidan musiqaga mehr qo'yganini, violonchelda mumtoz kuylarimni maroq bilan chalishini, ustozlari Ozod Akbarov hamda Ulug'bek Imomovlardan olayotgan saboqlarini mustahkamlab, kelajakda mohir musiqachi bo'lish niyatida ekanligini bilib oldim.

Farida FAYZULLAYEVA,
Namangan viloyati, Chust shahridagi 9-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi



MAS'ULIYATLI KASB EKAN

Seminar-treningning eng yosh ishtirokchisi bo'lsam-da, murabbiyimiz Lobar Islomova bergan saboqlarni yodimda saqlab qoldim. Guruhimiz bilan SANVIKT (Nogiron bolalarning badiiy markazi)ga borib, direktor Gulsara Rajabova bilan katta jurnalistlardek savol-javob qildim. Shundagina jurnalistlik mas'uliyatli kasb ekanligini his qildim.

Azamatbek BAHODIROV,
Toshkent shahridagi 51-fransuz tiliga ixtisoslashgan maktabning 3-«V» sinf o'quvchisi

SIZLARGA HAVASIM KELADI

Ushbu seminar-treningda ishtirok etish uchun Jizzaxdan keldim. Men kabi turli viloyatlardan kelgan ishtirokchilarni barcha sharoitlari muhayyo bo'lgan shinam mehmonxonaga joylashtirishdi, mazali taomlar bilan siylashdi.

5 kunlik seminar-treningimiz juda maroqli o'tdi. Murabbiylarimiz bizni zeriktirib, toliqtirib qo'ymaslik uchun mashg'ulotlarni qiziqarli o'yinlar tarzida o'tishdi. Ayniqsa, kulgu ustasi Obid Asomov hamda estrada yulduzlari Rayhon va Shaxriyor bilan bo'lgan uchrashuvimiz unutilmas lahzalarga boy bo'ldi.

Men O'zbekiston xalq artisti Obid Asomovdan intervyu oldim. Uni qisqacha tarzda e'tiboringizga havola qilmoqchiman:

- Obid aka, hayotda ham qiziqchimisiz?
- Men o'z o'rnida hazil qilaman, lekin hayotda jiddiy insonman.
- Ko'p davlatlarda bo'lgansiz. U yerdagi bolalar bilan bizning oramizda qanday farq bor?

- Ba'zi mamlakatlarning bolaligi yo'q bolalariga achinaman. Xorijda ko'chada tug'ilib, ko'chada yashaydigan, 4 yoshidanoq gazeta sotib, qorin to'yg'azishga majbur bo'ladiganlar ham bor ekan. G'arblik bolalarning zerikarli hayotiga ham havas qilmadim.

Shuning uchun ham baxtiyor bolaligi bor Siz O'zbekiston farzandlariga juda havasim keladi...

Mirkamol UMMATQULOV,
Jizzax viloyati, Zomin tumanidagi 65-umumta'lim maktabi o'quvchisi



«QUVNOQ TANAFUS»



Salom quvnoq, zukko, kulgusevar bolajontlar!
Kuzgi ta'til kunlarida maroqli dam olib, qadrdon maktabingizga qayldingizmi? Barakalla! Men ham ta'tilda miriqib dam oldim. Bugun esa yana xizmatlaringizga shay turibman. Sahifamni o'qib, katta tanaffusni ko'ngilli o'tkazasis, degan umiddaman, deb sizning «Quvnoq tanaffusingiz».



1. Ikki son ayirmasi 2 ga teng. Ularning yig'indi sonining ikkilangani 120 ga teng.
Savol: shu sonlar ko'paytmasi nechaga teng?



2. Valijon 50 dan pastga sanab turib, bexosdan ikki sonni tushirib qoldirdi. Bu sonlar ikki xonali bo'lib, ularning ko'paytmasi 588 ga teng. Bu sonlarning biri ikkinchisidan uch barobar kichik.
Savol: sonlarni toping.

QIZIQARLI MASALALAR


Dilnoza USMONOVA

BIROYNING USTIDAN KULMAGIN ZINKOR...

4-«G» sinfida matematika darsi borardi.

– Uyga vazifani kim bajarib keldi? – so'radi o'qituvchi.
– Men, men bajarib keldim, – dedi Yulduz sabrsizlik bilan qo'llarini baland ko'tarib.

Ustozi u bajargan vazifani diqqat bilan tekshirib, yana bir masalani doskada yechib berishini so'radi. Yulduz qancha urinmasin, masalani yecha olmadi va partadoshi Usmonga yordam so'ragandek tikildi. Usmon esa unga yordam berish o'rniga g'alati qiliqlar qilib, masxaralay boshladi: Bu holni kuzatib o'tirgan ustoz Usmonning o'zini ham doska



yoniga chorlab:
– Qani, Usmonbek, Yulduzga yordamlashib yuborgin-chi, – deb qoldi.
Masalani yecha olmagan Usmon butun sinfga kulgu bo'ldi.
Iroda AVVALBOYEVA

ANDALAP SONGA KIRDI

Ona tili darsida o'qituvchi Adhamdan so'radi:

– Qani, songa bitta misol ayt-chi.
– Bizning ko'chamiz.
– Iye, bu yerda son yo'q-ku.
– Boya oyim endi bizning ko'cha ham songa kirdi, dedilar-ku...



BOG'CHADA

– Oyijon, biz bugun bog'chada yozdik. Bog'cha opam hammamizga qalam, qog'oz tarqatdilar. O'zlariga yetmay qoldi-da. Keyin ular oynaga qarab, qoshlariga yozib o'tirdilar...




ENG, ENG...

baland cho'qqi – Jomolungma
uzun tog' tizimi – Kordilyera
katta orol – Grenlandiya
katta yarim orol – Arabiston yarim oroli
chuqur botiq – Marianna
sovuq joy – Antarktidadagi «Vostok» stansiyasi, 89,2 daraja sovuq
issiq joy – Afrikaning Tripoli shahrida +58 daraja issiq
katta sahro – Sahroi Kabir
baland sharshara – Anxel
ko'p yomg'ir yog'adigan joy – Gavayi oroli
quruq joy – Atakama cho'li
aholisi zich joylashgan davlat – Monaka
aholisi ko'p davlat – Xitoy
birinchi aholi ro'yxati o'tkazilgan davlat – Rossiya

Rohatoy HAKIMOVA,
Samarqand viloyati, Pastdarg'om tumanidagi 27-umumta'lim maktabining geografiya fani o'qituvchisi

TOPISHMOQLAR



Havo birdan o'zgardi, Qarang yomg'irda qoldim. Uni olmaganim-chun, O'zni panaga oldim.

Ustozimning daftari, To'lib, uyda qolmaydi. Usiz hech bir o'quvchi, Darsda baho olmaydi.

Nozima MAMATALIYEVA



AHILLIKDA GAP KO'P EKAN

Zulfiya Sattorova Zangiota tumanida joylashgan 15-umumta'lim maktabining 6-«A» sinfida a'lo baholarga tahsil o'lyapti. Uning adabiyotga ishtiyogi baland. O'zi ham mitti-mitti masal va badialar qoralab yuradi. Ijodga ishtiyog unga jurnalist bobosi Jo'ra Sa'dulla-yevdan meros bo'lsa, ne ajab?!

Ulg'aygach, xuddi bobosidek taniqli jurnalist bo'lish niyatida juda ko'p o'qiyapti, izlanyapti.

Zulfiyaning o'tiboringizga havola qilinayotgan hikoyasi Sizga ham ma'qul bo'ladi va katta tanaffusingizning maroqli o'tishiga oz bo'lsa-da, hissa qo'shadi, degan umiddamiz.

Bugun yakshanba. Odatimga ko'ra, qo'y-qo'zilarni qo'rasidan chiqarib, jarlik tomon haydadim. Ular maysazor bo'ylab yoyilib ketishdi. Men esa daraxtning tagiga o'tirib, kitobimni varaqlay boshladim.

Shu payt zo'r berib olg'a intilayotgan chumoliga ko'zim tushdi. U jarlikdan o'zidan ikki barobar katta bug'doy donasini sudrab chiqardi. Uning jarlikdan chiqishiga



ozgina qolganda, bug'doyi pastga dumalab ketdi. Chumoli bir fursat turib qoldi-da, ortiga qaytib, bug'doyini yana sudrashga tushdi. Endi yuqoriga yetay deganda, bug'doy bilan birga o'zi ham pastga dumalab ketdi. O'zini o'nglab olib, yana ishga kirishdi.

Bu hol yanglishmasam, olti marta takrorlandi. Chumolining bug'doyini

yuqoriga olib chiqishiga ko'zim yetmay qolgandi. Shu payt qayerdandir boshqa bir chumoli kelib, sherigiga donni dumalashga ko'maklasha boshladi. Nihoyat, tepalikka chiqib, donni inlariga olib kirib ketishdi.

Mittigina chumolilarning ahilliklariga havas qildim. Ulardan ibrat olsak arziydi.

Zulfiya SATTOROVA



TILAK

(Ukam Olimjonga)

Sen tug‘ilgach rangin dunyo,
Zavqqa to‘lib yorishdi.
Qahraton qish ketmam deya,
Bahor bilan olishdi..

Otam mag‘rur mehmon chorlar,
Ulfatlarin ko‘ngli shod.
To‘y ulanib ketar to‘yga,
Quvonchlarin aylar yod.



Tavalluding bo‘lsin qutlug‘,
Kelajaging tongdayin.
Ushbu she‘rim senga tortiq,
Xuddi shirin nondayin.

Ko‘z tegmasin qomatingga,
Sen alplarning o‘g‘loni.
G‘ururlanib olajaksan,
Bir kun butun dunyoni.

Shoir bo‘lmoqlikka qilmadim jazm,
Kingadir taqlid ham gunohdir butkul.
Ilhom – sen ruhimda jo‘sh urgan bazm,
Qalam, kel, ko‘rsatgil ko‘ngillarga yo‘l.

Bahrom UZOQOV



Oq peshona olacha,
Sut ichadi xohlasa,
Mushugim yeydi kulcha,
Ko‘zi yumuq uxlasa.
Ip g‘altakni o‘ynaydi,
Buvimdan olib qochib.
Jo‘jalarni quvlaydi,
O‘yinchoqlarni sochib.



Oq uloq, ola uloq,
Dikir-dikir sakraydi.
Menga solmaydi quloq,
O‘ynab-o‘ynab charchaydi.
Onasining ortidan,
Mangrabgina chopadi.
Menga kelib qaytadan,
Qo‘limdan non topadi.



Yesang barra ta‘mi zo‘r,
Dasturxonda qadrli.
Mana Botir sen yeb ko‘r,
Uning nomi bodring.

Bargi yashil, archamas,
Yesang achchiq, ko‘zda yosh.
Yig‘latishda charchamas,
Mitti, mushtday bu piyoz.

Sariq, qizil ranglari,
Ta‘mi achchiq — bu yolg‘on.
Sho‘rvada yesang dori,
Nomi aytsam, bu sholg‘om.



Sap-sariq, momiq, yumshoq,
Jajji mayin jo‘jalar.
Ona tovuq izidan,
Don izlashib yo‘rg‘alar.
Onasi qurq-qurq deydi,
Jo‘jalarga entikib,
Jo‘jalar don yemaydi,
Onasiga ko‘z tikib.
Bitta sariq jo‘jacha
Suyga tushdi surinib.
Buni katta ko‘lchadan,
Olimjon oldi ko‘rib.
Mahmud YO‘LDOSHEV

**«DON KIXOT»NING
MUALLIFI**


Bolalar, Servantes nomini eshitgansiz. Uning «Don Kixot» asari dunyoga mashhur. To‘liq ismi – Migel de Servantes Saavedra. 1547-yilning 29-sentabrida Ispaniyaning Alcala de Enares shaharchasida tug‘ilgan. Otasi – Rodrigo de Servantes tabiblik qilardi.

Servantes 1557-1561-yillarda maktabda o‘qiydi. 1561-yilda ularning oilasi Madrid shahriga ko‘chib boradi. Bo‘lajak yozuvchi o‘qishni davom ettiradi. 1570-yilda Italiyadagi ispan qo‘shiniga xizmatga kirib, turklar bilan urushda qatnashib, yarador bo‘ladi. 1575-1580-yillarda qaroqchilarga asir tushadi va Jazoirda tutqunlikda yashaydi. 1584-yilda Katerina ismli qizga uylanadi. Hayoti og‘ir kechadi. Ehtiyotsizligi oqibatida uch marta qamalib chiqadi.

Mashhur «Don Kixot» asarining birinchi qismi 1605, ikkinchi qismi 1615-yilda bosilib chiqadi.

Uning «Ibratli novellalar» (1613), «Parnasga sayohat» (1614), «Persiles va Sxismunda sayohati» romani ham bor.

U 1616-yilning 23-aprelida vafot etgan.

**OTAMGA**

Yoz faslida yo‘qotdim aziz otajonimni,
Yozga nafratim oshdi, u berdi xazonimni.
Bugun yana sog‘inib bog‘lar aro yuribman,
Yillar olib ketishdi mening quvnoq onimni.

Otam meni erkalab, qizalog‘im, der edi,
Yonlarida bo‘lsam gar, ovunchog‘im, der edi.
Bugun ularni rosa qo‘msayapman negadir,
Sog‘intirgan tog‘imni falak qaytib ber endi!

Durdona YO‘LDOSHEVA,
Toshkent shahar, Shayxontohur
tumanidagi 40-umumta‘lim maktabining
9-sinf o‘quvchisi

GO‘DAK MEHRI

Ra‘noning zarur ishi chiqib qoldi. Endigina bir yoshdan oshgan o‘g‘ilchasiga qarab turishni qo‘shni qizlardan iltimos qildi. Bolani yo‘lda qiynalib ko‘tarib yurganidan shuni ma‘qul ko‘rdi-da, iloji boricha tezroq qaytishini aytib, xonadan shoshilib chiqib ketdi.

Qo‘shni qizlarning biri bolaga qaradi, ikkinchisi uy yig‘ishtirishga tushdi. Bir mahal bola qo‘lini cho‘zib, «Aya, aya», deb yig‘lay boshladi. Ikki qiz ham hayron, chunki ayasi allaqachon ketib bo‘lgandi.

Bola emaklaganicha borib qizning qo‘lidagi ko‘ylakka tirmashdi. Qiz ham darhol tushunib, ko‘ylakni bolaning qo‘liga berdi.

Qizlar bir-birlariga ma‘noli qarab qo‘yishdi. Bolaning ayasi haligina shu ko‘ylakni almashtirib, beshikning ustiga tashlab ketgandi. Qo‘shni qiz beshikning yopqichlarini to‘g‘rilab, ko‘ylakni qo‘liga olgani uchun bola yig‘lab yuborgan ekan. U ko‘ylakni bag‘riga bosdi-yu, yig‘idan to‘xtadi. Ikki sho‘x qizga ermak topildi: «aya»ning ko‘ylagini ber, deb, biri qo‘yib-biri so‘rardi. Bola «yo‘q» deganicha ko‘ylakni mahkamroq bag‘riga bosardi. Bola sut ichgandayam ko‘ylakni qo‘lidan qo‘ymadi. Hatto uxlagandayam uni quchoqlab yotdi.


Uyqudan turgach, esidan chiqqandir, deb qizlar yana ko‘ylakni so‘radilar. Bola qizg‘anganicha «yo‘q» dedi.

Uni erkalab ko‘tardilar, shirinliklar berdilar, baribir ko‘ylakni bermadi.

Ra‘no uyga kirib kelganida, o‘g‘ilchasi ko‘ylagini bag‘riga bosib o‘tirardi. Qizlar kula-kula bo‘lgan voqeani so‘zlab berdilar. Shunda Ra‘noning ko‘zlariga yosh keldi. Bolasi o‘zgalarga onasining eski ko‘ylagini bermabdi-yu, onasi uni o‘zgalarga tashlab ketibdi-ya...

Barno RUSTAMOVA






YORUQIN MANZILLAR

– Dunyoning ko'plab mamlakatlarida bo'lganman, lekin Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi faoliyatini dunyo miqyosiga olib chiqqan davlat sifatida faqatgina O'zbekistonni tan olaman. Xususan, Bolalar sportini umumxalq harakatiga aylantirish yo'lida mazkur davlatning jadal qadamlari katta tahsinga loyiqdir. Ayniqsa, uch tizimli sport o'yinlari orqali yoshlarni matonat, jasorat va epchillik kabi fazilatlar orqali sog'lom turmush tarziga olib kirish harakatlaridan namuna olish va tajriba almashish muhim ahamiyatga egadir.

Radja RANDXIR SINGX,

Xalqaro Olimpiya qo'mitasi a'zosi, Osiyo Olimpiya kengashi bosh kotibi



Aziz bola-
jonlar! Payqaganmisiz,
o'lkamizning har tonggida
yorug' nurlar chizgisi bor.
Baxtiyorlik mehr shu'lasi, qalb
alangasi va e'tiqod ramzining
ifodasi bu... Mehridaryo xalqimiz
qadimdan o'z farzandlariga
alohida e'tiborda bo'lgan. Istiqlol
esa bunday qadriyatlarni
yanada ulug'ladi. Ayniqsa,
bolalar sportiga o'zgacha
mehr-muhabbat
qo'ydi.



YETTI O'LCHAB, BIR KESGANMIZ

2002-yil 24-oktabrda mamlakatimiz rahbarining «O'zbekiston bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasini tuzish to'g'risida»gi Farmoni qabul qilindi. Farmonda hukumatimiz tomonidan qabul qilingan barcha qarorlarda bolalar sportini aniq maqsad yo'lida va barqaror rivojlantirish vazifalari belgilab berildi. Xulosa qilib aytganda, barkamollik sari tashlangan yo'l yetti o'lchab bir kesildi.

Prezidentimizning 2004-yil 29-avgustdagi «O'zbekiston bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni esa bolalar sportini rivojlantirish, ayniqsa, qishloq joylarida o'quvchi-yoshlarni jismoniy tarbiya va sport bilan faol shug'ullanishga ommaviy jalb etish – umumiy o'ra ta'lim tizimini takomillashtirishning muhim vazifasi – Kadrlar tayyorlash milliy dasturining uzviy bo'lagi – 2004-2009-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umum milliy dasturining ajralmas qismi sifatida yangi yo'nalish ochib berdi.



BARKAMOLLIK SALOMATLIKDA

Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi tashkil topganidan keyin dastlab 44 ta sport inshooti qurilishi va 60 tasingin rekonstruksiya qilinishi belgilab olindi.

2003-2008-yillar davomida mazkur jamg'arma tomonidan jami 895 ta bolalar sport inshootlari barpo etildi. Bular 173 ta TIPlar asosida qurilgan bolalar sport majmualari, 498 ta umumta'lim maktablariga sport zallari va 224 ta sport inshootlarini rekonstruksiya qilishdan iborat bo'ldi.

2009-yilda ham 186 ta inshoot, ya'ni 6 ta TIPlar asosida sport majmualari qurildi, 174 ta maktab sport zallari va 6 ta sport inshootlari rekonstruksiya qilindi. Shuningdek, 21 ta suzish havzalari qaytadan ta'mirlandi. Yurtimizning barcha hududlarida qad rostlagan majmualar sport saroylari deb nom oldi. Zamonaviy qiyofaga ega bo'lgan, jahon standartlari darajasidagi sifatli jihozlar bilan ta'minlangan keng, yorug' va qulay bu koshonalar bugungi kunda bolalarning sevimli maskaniga aylandi. O'zlari yoqtirgan sport turlari bilan muntazam shug'ullanayotgan

bolajonlar shijoati, intiluvchanligi qalblarda kelajakka umid uyg'otadi.

SPORT

O'Z SO'ZINI AYTADI



G'amxo'rlik va e'tibor natijasi baribir o'z so'zini aytar ekan. Bu kabi faoliyatlar bois yurtimizda sportsevar bolalar soni kun sayin ortib boryapti. Buxoro viloyati, Romitan tumanidagi 18- umumta'lim maktabining yangi sport zalida bo'lganimizda, bunday g'amxo'rlikdan boshimiz ko'kka yetdi. Bu yerga Fransiyaning «Jerflor» firmasi mahsuloti bo'lgan «Tarafleks» deb nomlanuvchi maxsus sun'iy qoplama to'shalgan. Uning afzalligi shundaki, mazkur qulay qoplama sportchi bolalarni jarohatdan asraydi.

Bilasizmi, bolalar, buxorolik tengdoshlaringiz maktabiga o'matilgan bu qulay va bejirim sport jihozini, odatda xalqaro Olimpiya yoki yirik sport inshootlari binosida uchratishingiz mumkin. Bunday qoplama yurtimiz o'quv maskanlarining 122 ta bolalar sport majmuasida qo'llanildi, joriy yilda esa 74 ta inshoot qurilishida ishlatish ko'zda tutilgan.

QIZLAR AKADEMIYASI

MEN DIZAYNER BO'LAMAN



Sahifamizning bugungi mehmoni Azizaxon AKBAR qizi. Qizimiz elda aziz va mukarram bo'lsa, deya unga shunday ism berishgan bo'lsa, ne ajab?! Balki bu qizni siz ham yaxshi tanirsiz. Chunki u bizning eng faol muxbirlarimizdan, tahririyatimizga tez-tez kelib turadi. Gazeta tayyorlash jarayonida matnlarni o'qib, undagi xatolarni topishda yordamlashadi. Tahririyatdagi gullarga suv quyishni ham kanda qilmaydi. She'rlar mashq qiladi, rus tili hamda ingliz tilida bemaol so'zlashadi. Rus tilida kelgan

maktublarni darrov o'zbek tiliga tarjima qilib bergan paytlari ham ko'p bo'lgan. Yaqinda iste'dodining yana bir qirrasiga guvoh bo'ldik. Bir kuni u tahririyatimizga kirib keldi-da, barcha xodimlar bilan quchoq ochib ko'rishgach, bo'sh stolga o'tirib, ishga kirishib ketdi. Shunday chiroyli rasmlar chizdiki... Agar ko'z oldimizda chizmaganida, bu rasmlarni o'zi chizganiga sirayam ishonmagan bo'lardik. - **Aziza, qizim, chizgan rasmlaring**

buncha chiroyli! Katta bo'lsang sendan yaxshigina rassom chiqadi yoki boshqa kasb egasi bo'lishni xohlaysanmi? - deya so'raymiz undan. - Katta bo'lsam, bolalar dizayneri bo'laman. Kichkintoylarning kiyimlarini ko'rib, ko'zim quvnaydi. Lekin ayrimlari menga unchalik yoqmaydi: bezaklari kam, ranglari bir-birini to'ldirmaydi. Kelgusida men yana-da chiroyliroq, bejirim bolalar liboslarini yaratsam, deymen. Zamonaviy uslubdagi, andozalar asosida kiyimlar

yaratishni orzu qilaman. Ularni bolajonlarga kiydirib, modalar namoyishini o'tkazish niyatidaman. O'zim rus tilida tahsil olsam-da, milliy liboslarimizga hurmatim baland - **San'atga ham befarq bo'lmasang kerak-a? Tengdosh dugonalarining biror-bir, xonandaga havas bilan qarashadi, ularga taqlid qilishadi. Senga-chi, qaysi xonandaning qo'shig'i yoki raqsi yoqadi?** - Menga maftunkor Rayhona juda yoqadi. Ularga havasim keladi. Manzura Yo'ldoshevaning esa kiyinish uslubi yoqadi. Mening sevimli mashg'ulotim, ya'ni xobbim - raqsga tushish. Gohida ilhomim kelib, oyijonimga raqs tushib beraman. - **Yo'g'-e, unda bizga ham bir o'ynab ber-chi...**

Aziza biroz tortinib turdi-da, qo'l telefonidan yangrayotgan yoqimli musiqa sadosiga mos raqsga tusha ketdi. Uning chiroyli raqsini ko'rib, hayratda qoldik. Hali hech bir raqs dastasiga qatnamay, musiqa maktablarida o'qimay turib, shunchalar go'zal raqsga tushishini ko'rib, uning haqiqiy iste'dod egasi ekanligiga amin bo'ldik.

Aziz qizaloqlarim, sizlarning orangizda ham shunday iste'dodli qizlar ko'pligiga ishonamiz. Ular haqida bizga albatta yozib yuboring.

UMIDANING ORZUSI



Sahifamizning navbatdagi mehmoni Umida Suvonova. U 1992-yil 6-avgustda Termiz shahrida tavallud topgan.

Mustaqilligimizning 18 yilligi munosabati bilan o'tkazilgan «Eng ulug', eng aziz» tanlovining viloyat bosqichi g'olibi. «Kamalak jilosi», «Tuproq'ingdan aylanay» nomli she'riy va badiiy kitoblari nashr etilgan.

- Orzularim juda ko'p. Kelajakda jurnalist bo'lmoqchiman. Til o'rganishga qiziqaman. Milliyligimizga hurmatim cheksiz, - deydi Umidaxon.

- O'z orzuimga erishish uchun ko'proq o'qishim va serharakat bo'lishim kerak, - deb o'ylayman.



ENG MAROQLI GAZETA

Tahririyatimizga ko'plab yosh ijodkorlardan maqola va she'rlar muntazam kelib turadi. Shunday ijodkor qizlarimizdan yana biri Ruxshona Jamoliddinova. U poytaxtdagi 254-umumta'lim maktabining 5-«D» sinfida a'lo baholarga o'qiydi. «Tong yulduzi» Ruxshonaning eng sevimli nashri ekan. Shuning uchun u barcha sinfdoshlari bilan birga gazetamizga birinchilardan bo'lib obuna bo'libdi. Uning «Oq tulpor» nomli she'ri hamda «Sumalakka marhamat» deb nomlangan rasmi gazetamiz sahifasidan joy olgan.

- Men «Tong yulduzi» gazetasini o'qishni, unga obuna bo'lishni barcha tengdoshlarimga tavsiya qilaman. Chunki u dunyodagi eng maroqli va bolalarbop gazeta, - deydi Ruxshona.

MANZURA tayyorladi

OYI, NON QANI?

Bir kuni maktabdan qaytayotib, qo'llarida og'ir yuk ko'tarib kelayotgan qo'shni ayolga ko'zim tushdi. Yuklarini uylariga eltib qo'yayotib, eshikni taqillatdik. Ichkaridan uyqudan ko'zlari shishgan

- Voy, bolajonim, turdingmi, manavilarni olda, darrov bo'shatib qo'yaqol, men ishga shoshib turibman, - dedi Salima opa. - Oyi, non ham olib keldingizmi? Axir hali choy ham ichganim yo'q-ku, ish

baqaloqqina buyurishingiz ortiqcha, - dedi qo'pollik bilan bolakay. - Voy, non esimdan chiqibdi, darrov do'konga chiqib olib kelaqol. Yuklarim og'ir bo'lgani uchun non olmabman-da, - dedi hijolat bo'lib onaizor. Birdan tutoqib ketdim. Men undan, voy oyijon, bozorga meni ham olib

ketsangiz bo'lardi-ku, og'ir yukni qanday ko'tarib kelayapsiz, degan gapni kutgandim. O'z onasiga shunday muomala qilgan bolaning hatti-harakatlarini Siz qanday baholaysiz?

Nozima MAMATALIYEVA



Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, «KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi, «SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan Xalqaro xayriya jamg'armasi.

BOSH MUHARRIR: To'liqin HAYITOV

Dizaynerlar: **Fazliddin SHOYODGOROV, Olovuddin ORIPOV** Navbatchilar: **Gulyuz ORIFJONOVA, Yusuf ABDULLAYEV**

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI: G'ayrat SHOUMAROV, Svetlana INOMOVA, Qahramon QURANBOYEV, Odina JAMOLDINOVA, Jabbar RAZZOQOV, Murtazo SULTONOV, Feruza JALILOVA (Bosh muharrir o'rinbosari), Feruza ADILOVA (Mas'ul kotib), Dilmurod RAHMATILLAYEV, Dilshoda DADAJONOVA

Manzillimiz:

Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy. Indeks: 100129. Obuna indeksi: 198. e-mail: tong1924@mail.ru Tel: 244-27-25, 244-63-08 Tel./faks: (99871) 244-38-10

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi. Haftaning dushanba kuni chiqadi. Shakli A-3, 2 bosma taboq. ISSN 2010-6092 Adadi - 26991 Buyurtma N: J 8418